

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING RESPUBLIKA HUDUDIGA KIRISHI VA BOJXONA QONUNCHILIGI TALABLARI IJROSINI NAZORAT QILISH ALGORITMI

J.T. Usmonov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, dotsent

T.B. Djuraev

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, katta o'qituvchi

Anotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil yo'llari transportlarida xalqaro yuk tashishni nazorat qilish va faoliyat yuritish, sohaga doir raqamlashtirilgan axborot tizimlarini hamda transport xizmatlarini rivojlantirish, bojxona qonunchilik talablari ijrosini ta'minlash algoritmi keltirilgan.

Kalit so'zlar: avtotashuvchilar, bojxona, bojxona nazorati algoritmi, axborot tizim.

Аннотация. В данной статье представлен алгоритм контроля и функционирования международных грузоперевозок на автомобильном транспорте, развитие цифровых информационных систем и транспортных услуг на местах и правовое применение таможенного законодательства.

Ключевые слова: автомобильные перевозчики, таможня, таможенный контроль алгоритм, информационная система.

Annotation. This article presents an algorithm for the control and functioning of international cargo transportation by road, the development of digital information systems and transport services in the field, and the legal application of customs legislation.

Key words: car carriers, customs, customs control, information system, algorithm.

Ma'lumki, avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bugungi kunda barcha mamlakatlar, jumladan O'zbekistonda ham xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan har yili o'zaro tenglik shartlari asosida avtomobilda yuk va yo'lovchilar uchun xalqaro tashuvlarni amalga oshirish bo'yicha ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash yo'lga qo'yilgan.

Bunda xorijiy tashuvchiga, ya'ni xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan, mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asoslarda unga tegishli avtotransport vositasidan yuk yoki yo'lovchilarni xalqaro tashishda foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsga, avtotransport vositasini O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab o'tishi va unda ko'rsatilgan tashish turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat-blankani qo'llagan holda ruxsat beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 martdagi "Avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 202-sonli qarori asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi hamda tranzit o'tishi ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun, ikki tomonlama bitimlar shartlariga muvofiq, har bir davlat bilan alohida shartlar kelishilganligi bojxona xodimi tomonidan hujjatni rasmiylashtirishdan oldin tegishli shartnoma yoki ma'lumotnomani o'rganib chiqishiga to'g'ri keladi. Bu esa rasmiylashtiruv vaqtining cho'zilishiga va "inson omili" tufayli xatoliklar paydo bo'lish xavfini tug'diradi.

Shu sababli, xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi hamda tranzit o'tishi ustidan bojxona nazoratini ta'minlash jarayonini avtomatlashtirish, bojxona organlari va Transport vazirligi axborot tizimlarini integratsiyalash hamda shu asosda tashuv turlarini avtomatik aniqlash va yig'img'lar undirilishini nazorat qilish, bunda "inson omili"ni kamaytirish vazifasi dolzarb masala hisoblanadi.

Xalqaro avtomobilda tashuvchilar assotsiatsiyasi (XATA) bilan hamkorlik, ular tomonidan bojxona qonunchiligi ijrosini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, avtomobilda tashqi savdo yuklarini tashish hamda Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi davlatlari bojxona qonunchiligining o'ziga xos tomonlari tahlil etilgan.

Xalqaro yuklarni tashish uchun ruxsatnomalar olish tartib-tamoyillari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xususan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Rossiya Federatsiyasida xalqaro tashuvlarni ikki tomonlama, tranzit, uchinchi davlat(ga)dan kabi ruxsatnomalarni qo'llash tamoyillari tadqiqot ishida ko'rib chiqilgan.

Tashqi savdo yuklarini avtomobilda tashish va ular ustidan samarali bojxona nazoratini o'rnatish jarayonini avtomatlashtirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining "Avto" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga joriy etish masalalari tadqiqot ishida o'z aksini topgan.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning quyidagi besh jihati mavjud:

- vakolatli organlar tomonidan xorijiy tashuvchilarga taqdim etiladigan ruxsatnomalar blankalarining raqamli shakliga o'tish va ular bo'yicha bojxona organlari ma'lumotlar bazasi uchun real vaqt rejimida shakllantiriluvchi Reestrni tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish, jumladan, bunday tashishlarni ruxsatnomalar asosida amalga oshirish bo'yicha tuzilgan xalqaro shartnomalar shartlarini raqamlashtirish va ularni bojxona organlari axborot tizimlari ma'lumotlar bazasida jamlash;

- bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida xorijiy tashuvchilar tomonidan bojxona organlariga taqdim etilgan ruxsatnoma Davlat bojxona qo'mitasining raqamli ruxsatnomalar Reestrda mavjudligi ekanligini avtomatik nazorat qilish;

- yuk tashuvini amalga oshirayotgan avtotransport vositasi ro'yxatga olingan mamlakat, tashuv boshlangan mamlakat, tashuv yakunlangan mamlakat kabi

parametrlar Reestrda ruxsatnoma parametrlari bilan mos ekanligini avtomatik nazorat qilish;

- ruxsatnoma turiga qarab mazkur avtotransport vositasi bo'yicha bojxona yig'implari to'liq undirilishini nazorat qilish yuzasidan interaktiv muloqot o'rnatilishi lozim.

Bojxona organlari axborot tizimida xorijiy tashuvchilar tomonidan qo'llanadigan ruxsatnoma blankalarini real vaqt rejimida shakllantirish.

Bojxona organlarining "Avto" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi ma'lumotlar bazasida vakolatli organ tomonidan xorijiy davlatlar vakolatli organlariga taqdim etilgan O'zbekiston ruxsatnoma blankalarining raqamli Reestri shakllantirilib boriladi. Bunda, Reestrning axborot modeli sifatida quyidagi axborot matritsasi taklif etiladi.

$$\begin{matrix}
 & r_{i1} & r_{i2} & r_{i3} & r_{i4} & r_{i5} & r_{i6} & r_{i7} & r_{i8} \\
 & 11 & 12 & 13 & 14 & 15 & 16 & 17 & 18 \\
 & 21 & 22 & 23 & 24 & 25 & 26 & 27 & 28 \\
 = & 31 & 32 & 33 & 34 & 35 & 36 & 37 & 38 \\
 & \dots & & & & & & & \\
 & n1 & n2 & n3 & n4 & n5 & n6 & n7 & n8
 \end{matrix} \tag{1}$$

Bu yerda:

r_{i1} - ruxsatnoma blankasi seriya va raqami;

r_{i2} - ruxsatnoma blankasi taqdim etilgan davlat;

r_{i3} - ruxsatnoma blankasi amal qilish muddati;

r_{i4} - ruxsatnoma blankasi turi;

r_{i5} - ruxsatnoma blankasi berilishiga asos bo'lgan normativ-xuquqiy xujjat;

r_{i6} - ruxsatnoma blankasi joriy vaqtdagi maqomi (aktiv, bekor qilingan);

r_{i7} - ma'lumotlarni kiritish sanasi;

r_{i8} - ma'lumotlar o'zgartirilgan sana;

i - Reestrda mavjud ruxsatnomalar soni ($i \leq n$).

Shuningdek, mazkur Reestrda mavjud ruxsatnoma xujjatlaridan foydalanish monitoringini olib borish uchun quyidagi ko'p o'lchovli axborot matritsasiidan foydalanish taklif etiladi:

Bu yerda:

n - Reestrda mavjud ruxsatnomalar soni;

m - i -chi ruxsatnomaning qo‘llanishlari soni, ($i \leq n$);

a_{i1k} - i -chi ruxsatnomaning k -chi qo‘llanishidagi rasmiylashtirilgan hujjat kodi;

a_{i2k} - i -chi ruxsatnomaning k -chi qo‘llanishidagi rasmiylashtirilgan hujjat raqami;

a_{i3k} - i -chi ruxsatnomaning k -chi qo‘llanishidagi rasmiylashtirilgan hujjat sanasi;

a_{i4k} - i -chi ruxsatnomaning k -chi qo‘llanishidagi rasmiylashtirilgan hujjat rasmiylashtirilgan bojxona organi kodi;

(1) hamda (2) axborot matrictsalarini inobatga olgan holda, ruxsatnoma blankasining turi va yig‘im undirilishi majburiyligiga bog‘liq ravishda «ruxsatnoma salmog‘i» ni belgilovchi quyidagi funksiyadan foydalanish taklifi kiritiladi:

$$S = \sum_{j=1}^4 s_j$$

Bu yerda s_j -ruxsatnoma blankasini turi va yig‘im undirilishi majburiyligiga bog‘liq o‘zgaruvchilar bo‘lib, uning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval. «ruxsatnoma salmog‘i» ni belgilovchi qiymatlar

No	Ruxsatnoma turi	s_j qiymati
1	Ikki tomonlama	1
2	Tranzit	2
3	Uchinchi davlatlar(ga)dan	4
4	Yig‘im undirilmaydi	8

Misollar.

1. Turkiya Respublikasi vakolatli organiga taqdim etilgan “UZ 811011” raqamli “universal” ruxsatnoma hujjati bilan turk avtotashuvchisi bojxona yig‘imlarini to‘lamagan holda ikki tomonlama, tranzit va uchinchi davlatlar(ga)dan tashuvlarni amalga oshira oladi. Bu holda mazkur ruxsatnoma qiymati $1+2+4+8=15$ ga teng bo‘ladi.

2. Shveysariya Konfederatsiya vakolatli organiga taqdim etilgan “UZ 020784” raqamli ruxsatnoma hujjati bilan shveysariya avtotashuvchisi bojxona yig‘imlarini to‘lagan holda ikki tomonlama va tranzit tashuvlarni amalga oshira oladi. Bu holda mazkur ruxsatnoma qiymati $1+2=3$ ga teng bo‘ladi.

“Avtotransport ro‘yxatdan o‘tgan davlat”, “Tashuv boshlangan davlat” va “Tashuv yakunlanadigan davlat” to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida tashuvlarni shartli ravishda quyidagi 6 turga bo‘lish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Xalqaro avtomobilda tashuv turlari

Kod	Tashuv turi	Sharti
T1	Ikki tomonlama, yig‘im undiriladi	$((AR=TB \text{ va } TY=UZ) \text{ yoki } (AR=TY \text{ va } TB=UZ)) \text{ va } YU=“0”$
T2	Tranzit, yig‘im undiriladi	$((AR=TB \text{ va } TY \neq UZ) \text{ yoki } (AR=TY \text{ va } TB \neq UZ)) \text{ va } YU=“0”$
T3	Uchinchi davlatlarga/dan, yig‘im undiriladi	$((AR \neq TB \text{ va } TY=UZ) \text{ yoki } (AR \neq TY \text{ va } TB=UZ)) \text{ va } YU=“0”$
T4	Ikki tomonlama, yig‘im undirilmaydi	$((AR=TB \text{ va } TY=UZ) \text{ yoki } (AR=TY \text{ va } TB=UZ)) \text{ va } YU=“1”$
T5	Tranzit, yig‘im undirilmaydi	$((AR=TB \text{ va } TY \neq UZ) \text{ yoki } (AR=TY \text{ va } TB \neq UZ)) \text{ va } YU=“1”$
T6	Uchinchi davlatlarga/dan, yig‘im undirilmaydi	$((AR \neq TB \text{ va } TY=UZ) \text{ yoki } (AR \neq TY \text{ va } TB=UZ)) \text{ va } YU=“1”$

Bunda,

AR – avtotransport ro‘yxatdan o‘tgan davlat;

TB – tashuv boshlangan davlat;

TY – tashuv yakunlanadigan davlat;

UZ – O‘zbekiston Respublikasi;

YU – yig‘imlar undiradimi (ha bo‘lsa “0”, yo‘q bo‘lsa “1”).

Jadval 1. va jadval 2. Ma‘lumotlaridan foydalangan holda bojxona chegara postidan o‘tayotgan avtotransport hujjatining shartli salmog‘i aniqlash mumkin (3-jadval).

3-jadval. Rasmiylashtirilayotgan «Ruxsatnoma salmog‘i»ni aniqlash

Avtomobilda tashish turi			yig‘imlar undirilishi sharti	«ruxsatnoma salmog‘i»	2-jadval sharti
ikki tomonlama	tranzit	uchinchi davlatlar(ga)-dan			
1	0	0	0	1	T1
0	2	0	0	2	T2
1	2	0	0	3	T1+ T2
0	0	4	0	4	T3
1	0	4	0	5	T1+ T3

0	2	4	0	6	T2+ T3
1	2	4	0	7	T1+T2+ T3
1	0	0	8	9	T4
0	2	0	8	10	T5
1	2	0	8	11	T4+ T5
0	0	4	8	12	T6
1	0	4	8	13	T4+ T6
0	2	4	8	14	T5+ T6
1	2	4	8	15	T4+ T5+ T6

Xorijiy tashuvchilar tomonidan taqdim etilgan O‘zbekiston ruxsatnomalari blankalarini tekshiruvdan o‘tkazish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-qadam: O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan bevosita bojxona organlari axborot tizimiga ulangan holda raqamli ruxsatnomalar reestri shakllantiriladi.

2-qadam: Bojxona postlarida xorijiy avtotashuvchi bojxona rasmiylashtiruvdan o‘tkazilayotgan jarayonda, transport vositasi O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish, jumladan, bunday tashishlarni ruxsatnomalar asosida amalga oshirish bo‘yicha xalqaro shartnomaga ega davlatlar sirasiga kirishi tekshiriladi.

3-qadam: Agar tashuvchi transport vositasi xalqaro shartnomaga ega davlatlar sirasiga kirmasa, uchinchi davlatlar(ga) dan tashuvlar ta’qiqlanadi.

4-qadam: Agar tashuvchi transport vositasi xalqaro shartnomaga ega davlatlar sirasiga kirsam taqdim etilgan ruxsatnoma blankasi ruxsatnomalar reestrda mavjudligiga tekshiriladi.


5-qadam: Agar tekshiruv natijasida reestrda bunday blanka to‘g‘risida ma’lumot bo‘lmasa, tashuv ta’qiqlanadi.

6-qadam: Agar tekshiruv natijasida reestrda bunday blanka to‘g‘risida ma’lumot bo‘lsa, 1-jadval asosida hisoblangan ruxsatnoma blankasi qiymati 3-jadval asosida hisoblangan bojxona organlari axborot tizimidagi hujjat qiymati bilan solishtiriladi.

7-qadam: Agar hujjat qiymati ruxsatnoma blankasi qiymatidan katta bo‘lsa, tashuv ta’qiqlanadi.

8-qadam: Agar hujjat qiymati ruxsatnoma blankasi qiymatidan kichik yoki teng bo‘lsa, transport vositasini rasmiylashtiruvga ruxsat beriladi.

Xorijiy tashuvchilar tomonidan O‘zbekiston ruxsatnomalari blankalari asosida tashuvlarni nazorat qilish algoritmi blok-sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xorijiy tashuvchilar tomonidan taqdim etilgan O‘zbekiston ruxsatnomalari blankalarini tekshiruvdan o‘tkazish jarayoni asosida tashuvlar algoritmi blok sxemasi

Blok-sxemada:

AR – avtotransport ro‘yxatdan o‘tgan davlat;

RQ – ruxsatnoma qiymati;

HQ – hujjat qiymati;

DZ – Avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnomaga ega davlatlar.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan algoritm bojxona organlari axborot tizimida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan xorijiy tashuvchilarga taqdim etilgan ruxsatnoma blankalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi nazorat qilish imkonini beradi. Bugungi kunda mazkur algoritm Davlat bojxona qo‘mitasining “Avto” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi doirasida amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida o‘zining samaradorligini ko‘rsatgan.

Adabiyotlar

1. T.B. Djuraev, H.K. Чориёров Модель информационных потоков в диспетчерской службе транспортного процесса. Journal of Integrated Education and Research. Vol. 1 No. 6 (2022): б. 63-67.
2. J.T. Usmonov, T.B. Djurayev, Pulatova Z.M. Imitation models of the railway organization for railway transport flows, International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021. DOI: [10.1109/ICISCT52966.2021.9670044](https://doi.org/10.1109/ICISCT52966.2021.9670044) Retrieved from www.scopus.com

3. J.T. Usmonov, T.B. Djurayev Technical science and innovation, Imitation models of the railway organization for railway transport flows, Tashkent state technical university named after Islam Karimov., №4(10) tashkent 2021 page 201-207.
4. T.B. Djuraev, O.X. Alloyorov “Автомобил транспорти логистикаси фаолиятини Монте-карло усули асосида оптималлаштириш”. “Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali. 2(16) /2021, 46-51
5. J.T. Usmonov, T.B. Djuraev, Z.M. Pulatova (2020). Optimization of global information flows in transport system management. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2024-2032. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202319 Retrieved from www.scopus.com
6. X. Jiyanbekov, J. Usmonov, S. Azimov (2019). The probability model of railway transport system activity. Paper presented at the Transport Means - Proceedings of the International Conference, 2019- October 1256-1259. Retrieved from www.scopus.com